

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

**O‘ZBEKISTON XUDUDI TURAR-JOYLARIDA MUDOFAA DEVORIDA YUZ
BERGAN XUSUSIYATLARIGA DOIR BA’ZI CHIZG‘ILAR (II MING YILLIK. MIL.
AVV. X ASR)**

Eshchanov Hurmat Matnazarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning tarixiy-etnogeografik xududlaridagi turar-joylar mudofaa devorlaridagi o‘zgarishlar taxlil qilingan

Kalit so‘zlar: Zadneprovskiy Yu.A, Matboboyev B.X, Askarov A, Masson V.M. O‘zbekiston, Ustyurt, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Sherobod, Ulanbuloqsoy, Chust, Sopollitepa, Jarqo‘ton

**НЕКОТОРЫЕ СТРОКИ ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ОБОРОНИТЕЛЬНОЙ СТЕНЫ
НА ПОСЕЛЕНИЯХ ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА (II ТЫС. ДО Н. Э. X В.)**

Аннотация: В данной статье анализируются изменения оборонительных стен поселений в историко-этногеографических регионах Узбекистана.

Ключевые слова: Заднепровский Ю.А, Матбобоев Б.Х, Аскарлов А, Массон В.М. Узбекистан, Устюрт, Нижняя Амударья, Кызылкум, Шерабад, Уланбулоксой, Чуст, Сополлитепа, Жаркотон

**SOME LINES ON THE FEATURES OF THE DEFENSE WALL IN THE
SETTLEMENTS OF THE TERRITORY OF UZBEKISTAN (II MILLENNIUM BC. X
CENTURY)**

Annotation: This article analyzes the changes in the defensive walls of settlements in the historical-ethnogeographical regions of Uzbekistan..

Key words: Zadneprovsky Yu.A, Matboboyev B.Kh, Askarov A, Masson V.M. Uzbekistan, Ustyurt, Lower Amudarya, Kyzylkum, Sherabad, Ulanbuloksoy, Chust, Sopollitepa, Jarkoton

Kirish. Mil.avv. II ming yillik ikkinchi yarmi – mil.avv. X asrda O‘zbekistonning madaniy-xo‘jalik xududlarida joylashgan qabilalar jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlarni bir qator innovatsion bilimlar asosida rivojlantirganlar. Yuqorida qayd qilingan tarixiy davrda axolining turar-joylarning konstruktiv tuzilishida o‘lka xududi ikki tipga ajratiladi:

1-tip: Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon daryosi quyi xavzasi, Qizilqum, o‘rta Zarafshon va Toshkent vodiysi xududlari turar-joylari yarim yerto‘la, geografik o‘rni tez-tez o‘zgarib turishi.

2-tip: Farg‘ona vodiysi markaziy xududi va Surxon vohasi Sherobod daryosi Ulanbuloqsoy irmog‘i quyi xavzasi.

Mazkur maqolada bronza davri ikkinchi yarmi – mil.avv. X asrda O‘zbekiston madaniy-xo‘jalik xududlarida aniq geografik xududga ega bo‘lgan turar-joylari hamda yarim yerto‘la manzillari tarixi taxlil qilinadi. O‘zbekiston xududi yuzasi tuzilishi rang-barangligini Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon, Toshkent, Farg‘ona va Surxondaryo xududlari tasvir etib, ularning tabiati, geografik sharoiti ta‘sirida xajmi kichik qishloqlarning paydo bo‘lishi, uni tarix taqozasiga ko‘ra to‘rt tomoni tog‘ o‘rab olgan paxsa-devorlarning qurilishi xamda mudofaa bilimlarining aks etishi masalasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola O‘zbekiston tarixiys-etnogeografik xududlarda qishloqlarning mudofaa davrida elementlarning joylashishi tarixiga bag‘ishlangan ilk maqola hisoblanadi. Maqolaning maqsadi, vatanimiz tabiiy-iqtisodiy xududlarda qabilalarni joylashishi turar-joylarni to‘rt tomoni paxsa, to‘g‘ri burchakli devorlarda elementlarni joylashishi, ularning vazifasini yortishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. O‘zbekiston madaniy-xo‘jalik, xududlari bronza davrida Chust manzilgohi aholisi o‘troq xayot Limon dexqonchiligi, to‘rt tomoni mudofaa devor bilan o‘rab olinganligi arxeologik qazishmalar natijasida olinganligi qayd qilingan. [1.1962- S.25-40]. Lekin tadqiqotchi Chust manzilgohi mudofaa devori elementlari to‘g‘risida fikr-mulohazalari ko‘zga tashlanmaydi. Demak Chust manzili bronza asri so‘nggi bosqichida bir qatorli paxsa devor o‘rab olingan bo‘lib, uni “Oddiy mudofaa himoyalaniish bilimi vujudga kelishi,jamiat taraqqiyotida uning shakllanish jarayoniga asosida takomillashi tomon tashlangan qadam deb izohlash mumkin⁴⁵.

Tadqiqotchi B.X.Matboboyev Chust manzilgohi tomonlarini o‘rab olgan mudofaa devor to‘g‘risida ma‘lumotni bergan [2.2002- B.9-10].

Yu.A.Zadneprovskiy Chust madaniyatini o‘rganish natijalaridan Farg‘ona vodiysida (Markaziy tekislikda) bronza davri aholisini xo‘jalik yunalishiga qarab ikki tipga ya‘ni kasbi-korlarini olib borgan o‘troq ziroatchilik bilan bilan xamda chorvadorlar – chorvachilik xo‘jaligini olib borish bilan daryo o‘zanlari ekin-tekinga qulay yerlarida foydalanganlar degan xulosani qayd qilgan⁴⁶ [31974- C.32-35].

A.Asqarov tadqiqotida Bronza davriga mansub Sopollitepa yodgorligi tekislikka barpo qilinganligi, kvadrat shakl markaziy qismi, atrofi 3 yulakli mudofaa devor o‘rab olganligi to‘g‘risida ma‘lumotlarni ilmiy jamoatchilikka e‘lon qilgan⁴⁷ [4.1973- C.5-10]. Sopollitepa uch qatorli “P” shaklda devor bilan o‘rab olingan, ammo devorda mudofaa elementlardan xoli.

⁴⁵ Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы //МИА-М-Л, № 118-С.1962.

⁴⁶ Заднепровский Ю.А. Типы поселений и жилищ Ферганы бронзового века //Реконструкция древних общественных отношений по археологическим материалам жилищ и поселений-Л; Наука, 1974.

⁴⁷ Аскарлов А. Сапаллитепа-Ташкент, Фан, 1973.

Tadqiqotchi Sherobod daryosi Shimoliy xududda Sopollik axoli tomonidan Jarqo‘ton yodgorligi to‘g‘risida ma‘lumotni berib, tomonlari ikki qatorli mudofaa devor o‘rab olganligi, devor o‘z navbatida to‘g‘riburchakli burjlar, joylashganligini qayd qilgan⁴⁸ [5.1977- C.15-25]. Mil.avv-gi III ming yillik o‘rtalarida Janubiy Turkmanistonning Murg‘ob daryosi yuqori qismida Oltindepa murakkab mudofaa inshootga ega bo‘lgan, yirik ilk shaxar bo‘lgan (25 ga) [6.1981- C.98-100]. Respublikaning boshqa madaniy-xo‘jalik tiplarida turar-joylarni to‘rt tomoni mudofaa devorlar bilan o‘rab olinishi xaqida ma‘lumotlar mavjud emas⁴⁹.

Ta‘kidlash lozim bo‘ladiki turar-joylar qurilishida binokorlik bilimi mil.avv.VI-V ming yilliklarga mansub bo‘lgan Jaytun yodgorligida o‘rganilgan edi. Joytun manzilgohi uy-xonalari devorlari paxsa va guvalakdan tiklangan, mudofaa devor o‘rab olmagan⁵⁰ [7.1971- C.78-79].

Mavzuni o‘rganishda ilmiy usullar:

- Ilmiylik;
- xronologik izchillik;
- tarixiy tahlil;
- qiyoslash, asoslash;
- etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geologiya va geografiya fanlari yutuqlaridan foydalanish

Taxlil. O‘zbekiston xududida bronza davrida axoli tomonidan barpo qilingan Farg‘ona vodiysida Chust manzilgohi, xamda Sopollitepa, Jarquton yodgorliklari mudofaa devori, uning me‘moriy tuzilishi masalalariga oydinlik kiritildi.

Natijalar: O‘zbekiston madaniy-xo‘jalik xududlarida eneolit davri axolisini xo‘jalik sohalarida erishgan zafarlari asosida rivojlangan bronza davrida turar-joylar qurilishiga, ayniqsa uning himoyalaniish darajasi, mudofaa devor uning mudofaa elementlarining qishloq axolisini harbiy san‘atdan xabardor ekanligi to‘g‘risida umum natijalar hosil bo‘lgan.

Xulosa. O‘zbekiston xududida bronza asri ikkinchi yarmida Chust, Sopollitepa, Jarqo‘ton yodgorliklari o‘z vaqtida mudofaa inshootlarga mansub degan xulosa qilindi. Xar xolda Farg‘onada devor o‘rab olgan Chust, Sopollitepa, Djarkuton yodgorliklari mudofaa devorlar bilan o‘rab olinganligi xulosa qilingan.

Takliflar: Yuqorida zikr qilingan ma‘lumotlar quyidagi takliflar qayd qilinadi. Birinchidan ajdodlarimizni murakkab bosib o‘tgan xayot yulini o‘rganishni davom ettirish, xarbiy bilim yurtlarida maqola mazmunidagi ma‘lumotlar bo‘yicha ma‘ruzalar olib borish, ajdodlarimizni turar-joylari qurilishi va mudofaa bilimlarini ixtiro qilishiga taqozo etgan sharoit masalalari bo‘yicha takliflar qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы //МИА-М-Л, № 118-С.1962

⁴⁸ Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан-Тошкент, Фан. 1983.

⁴⁹ Массон В.М. Алтын-дебе //ТрЮТАКЕ, Т. XVIII Наука, 1981.

⁵⁰ Массон В.М. Поселение ДЖейтун //МИА-Л: Наука № 180, 1971.

2. Заднепровский Ю.А. Типы поселений и жилищ Ферганы бронзового века //Реконструкция древних общественных отношений по археологическим материалам жилищ и поселений-Л; Наука, 1974
3. Аскарлов А. Сапаллитепа-Ташкент, Фан, 1973.
4. Аскарлов А, Абдуллаев Б. ДЖаркутан-Тошкент, Фан. 1983
5. Массон В.М. Алтын-дебе //ТрЮТАКЕ, Т. XVIII Наука, 1981
6. Массон В.М. Поселение ДЖейтун //МИА-Л: Наука № 180, 1971
7. Исламов У.К, Тимофеев Б,У “Култура каменного века центральной Ферганы”. Т. Фан. 1986
8. Ташкенбаев Х, Сулейманов Р.Х “Култура древнекаменного века долины Зарафшан. Т. Фан. 1980
9. Итина М.А История степных племен Южного Приаралья, // ТРХАЭЭ-М.Наука. Т.10. X. 1977
10. Kabirov J, Sadullayev A. “O‘rta Osiyo arxeologiyasi”. Т. O‘qituvchi. 1990